



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**
XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI
1-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
1-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

O‘ZBEKISTONDA CHOYXONALAR FAOLIYATI TARIXIGA NAZAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHI MISOLIDA)

PhD, dots. Nasirov Bunyod Uralovich

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

n.bunyod2020@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada aholi kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgan choyxonalarining XIX asr oxiri – XX asr boshidagi faoliyati, turli davrlarda choyxonalar faoliyati bilan yuz bergan o‘zgarishlar, munosabat kabi masalalar yoritilgan. O‘zbekiston aholisi hayotida choyxonalar faoliyati qadimiy tarixga ega bo‘lib, aholining ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: choyxona, umumiy ovqatlanish, restoran, sovet hukumati, xizmat ko‘rsatish.

Ma’lumki, umumiy ovqatlanish tizimi aholining turmush darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu soha inson ehtiyojlarini qondirish va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratish kabi muhim hayotiy vazifalarni bajaradi.

Umuman, “umumiy ovqatlanish” termini xonadondan tashqarida tayyorlanadigan ko‘p miqdorda bo‘lgan taomlar ma’nosini ham anglatadi. Bu borada, g‘arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiya kabi davlatlarning amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, umumiy ovqatlanish muassasalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar tez o‘zini oqlaydi. Xorijiy davlatlarda yarim avtomashlashgan yoki to‘liq avtomatlashgan oshxona va kafelar, shuningdek “fast-fud” kabi taomlar tayyorlaydigan kafeteriylar, gril-barlar hamda “shved stoli” ko‘rinishidagi bufeti mavjud restoranlar va shu kabilar ovqatlanish maskanlari ancha mashhur [1].

Mahalliy aholi ko‘p tashrif buyuradigan choyxonalar tarixi uzoq o‘tmishga aloqador bo‘lib, qadimda rabotlar, bozor, guzarlar va mahallalardagi xushmanzara joylarga qurilgan, ularda choy-nondan tashqari turli qand-qurs, meva qoqilar sotilgan, taomlar ham tayyorlangan. Choyxona nafaqat choy ichib, taom tanovul qilinadigan maskan, balki musofirlar uchun tunab qoladigan mehmonxona kabi jarayonni ham bajargan. Shuningdek, hududdagi mahalliy aholi, yo‘lovchi va musofirlar, hunarmandlar, kosiblar, dehqonlar, savdogarlar va shu kabi aholining turli toifalari tamaddi qilish masalasida uchrashgan. Bu maskanda, turli masalalarda muloqotlar va munozaralar jarayoni qizg‘in ketgan.

Choyxonalarda doira, dutor, g‘ijjak, nay kabi milliy cholg‘u asboblari mavjud bo‘lib, xalq qo‘shiqlari, ayniqsa, klassik ashula-kuylarni ijro etuvchi mashshoqlar, xonandalar bo‘lishgan. Ular bu orqali mijozlarga, ma’naviy, estetik zavq bag‘ishlaganlar. Shu bilan birga, to‘r qovoqlarda kaklik va bedanalar tinimsiz sayrab turgan. Ta’kidlab o‘tish lozimki, choyxona madaniy dam olish, hordiq chiqarish maskani ham hisoblangan [2].

Ta’kidlab o‘tish lozimki, choyxonalarda shaxsiy, mahalla bilan bog‘liq va jamoat xabarlari, savdo, siyosiy hamda ijtimoiy yangiliklar muhokama qilingan.

Yuqorida qayd etilganidek, bu maskanda yo'lovchilar nafaqat taom tanovvul qilishgan balki, yangiliklar, turli voqealar va jarayonlar bo'yicha fikr almashishgan.

XX asr boshida, I.I.Geyerning Toshkent shahrining "yangi" qismida sanoat va savdo tashkilotlari to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan. Xususan, bu hududa joylashgan turli ko'rinishdagi faoliyat (tikuvchi, duradgor, tamaki fabrikasi, fotografiya va boshq.) turi bo'yicha ma'lumot berib, "Riviera" va "Yar" ofitsiantlar arteli to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan [3].

Toshkent shahri "yangi" qismi Politsiya boshqarmasiga tegishli arxiv hujjatlarida 1904 yilga oid choyxonalar bo'yicha bir qator ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Sirdaryo viloyat harbiy gubernatori nomiga General gubernator vazifasini bajaruvchi general leytenant Matsievskiy tomonidan murojaat yuboriladi. Unda Matsievskiy Janarboevaga tegishli choyxonani yopishga yetarli asos topa olmayotganligini bayon qilib, choyxonada ichkilik va buzqlik maskaniga aylanishiga ehtimol mavjudligini qayd etadi. Agar shunday hol kuzatilsa, darhol dalolatnoma tuzilib, choyxonaning yopilishi ta'kidlab o'tiladi [4]. Bu holat o'z-o'zidan Rossiya imperiyasi hududiy rahbarlari tomonidan mahalliy aholining kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgan choyxonalarni, turli bahonalar bilan yopilishi uchun yillar mobaynida politsiya vakillari kuzatuv va asos izlaganligini tasdiqlaydi. O'z o'rnida, "yangi shahar"da choyxonalarning faoliyat ko'rsatishi ularga ma'qul kelmagan. Biroq, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, birgina Yangi Marg'ilon hududda qanchadan-qancha turli ko'rinishdagi pivoxonalar va vino ichimligi ichiladigan, bilyard o'yinlari bo'lib o'tadigan maskanlar tashkil etilgan. Aslida, mahalliy aholiga tegishli bo'lgan choyxonalar taom ichkilik ichib, turli o'yinlarni tashkil etadigan emas, balki, taom tanovvul qiladigan va fikr almashadigan, suhbatlashadigan maskanlar sifatida bo'lganligini qayd etish joiz. Biroq, Toshkentning yangi qismi polismeysteriga Obuxovskiy prospektidagi choyxona faoliyatidan shikoyat qilib, bu choyxonadan har kuni 50 nafar aholi yig'ilishi va karta o'yini o'ynalishini ma'lum qiladi. E'tiborli tomoni, polismeysterdan choyxonadagi o'yinni to'xtatish yoki umuman choyxonani yopishni so'raydi [5].

Sovet hokimiyati davrida esa, hukumat o'z g'oyalarini aholiga singdirishda ular uchun uzoq davrdan buyon an'anaviy bo'lgan choyxonalardan ustalik bilan foydalanishga harakat qilgan. Ularda turli mavzularda ma'ruzalar o'tkazish, gazeta va jurnallarni o'qish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. XX asrning 20-30-yillarda qizil choyxonalar tashkil etilib, ularda turli mavzularda ma'ruzalarni tashkil qilingan, gazeta va jurnallarni o'qish ishlar keng ko'lamda olib borilgan. Ya'ni, sovet hokimiyati o'z g'oyalarini aholiga singdirishda ular uchun uzoq davrdan buyon an'anaviy bo'lgan choyxonalardan ustalik bilan foydalanishga harakat qilgan.

Bu boradagi ishlarda, qizil choyxonalarni jadal sur'atlar bilan o'sishi natijasida, 1937 yil respublikada ularni soni 3437 tani tashkil etdi. Shu o'rinda Buxoro viloyatida -700 ta qizil choyxonalarda bir yilda 4176 ta ma'ruzalar o'qilgan, 445 ta spektakllar, 482 ta kino seanslar hamda 126 ta tashabbuskor to'garaklar faoliyat olib borishgan. 47 ta qizil choyxonada 109 ta to'garaklar tashkil etilib, bu to'garaklarga 2652 nafar kishilar jalb qilingan. 1939 yil 1 yanvar holatida, O'zbekistondagi qizil choyxonalar soni 4073 tani tashkil etdi. Buxoro viloyatida esa qizil choyxonalar soni-1121 ta bo'lib, 1939 yilda 409 ta ma'ruzalar va suhbatlar o'tkazildi, bu tadbirlarga 60 ming nafardan

ortiq kishilar ishtirok etishdi. Aholining o'sib va har tomonlama kamol topishida, rivojlanishida atrof-muhit omillari bilan bir qatorda, sifatli ovqatlanish tartibi ham katta ahamiyatga ega. Yoshiga, jinsiga, ish faoliyati va salomatlik holatiga mos ravishda ovqatlanish tartibi nafaqat yoshlarga, balki katta yoshdagilarning ham ishlash qobiliyati va salomatlik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6].

O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1952 yil 6 mart kungi "Choyxonalar ishini tartibga solish to'g'risida"gi 425-son qarorida QQASSR Vazirlar Kengashi, viloyat ijroiya qo'mitalari va Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi davlat va jamoat tashkilotlari tasarrufida bo'lgan, o'z o'rnida ustav va nizomlarida umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyati ko'zda tutilmagan barcha choyxonalarni 1952 yil 1 aprel kuniga qadar O'zbekiston SSR Savdo Vazirligi yoki iste'molchilar kooperatsiyasiga o'tkazish ko'zda tutildi [7]. Choyxonalarni o'tkazishda SSSR XKKning 1936 yil 15 fevral kungi 254-son hamda 1940 yil 5 may kungi 667-son qarori asosida tashkil etish belgilandi [8].

XX-asrning 70-80-yillarida respublikadagi shahar markazlarida, xususan ko'p qavatli uylar joylashgan mahallalarda, to'y va turli tadbirlarni o'tkazishda choyxona kabi muassasalarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu kabi tadbirlarni o'tkazish uchun mahalliy va milliy xususiyat e'tiborga olinishi lozim bo'lgan.

XX asrning 80-yillar ikkinchi yarmida milliy ko'rinishdagi choyxonalar shaharlarda nisbatan kamayib borgan. Aholi gavjum joylarda, turli yirik bekatlar, stansiyalarda durustroq choyxona bo'lmagan. Masalan, Toshkentga ertalab chetdan horib kelgan mehmon choyxona izlab to shahar markazidagi "Moviy gumbaz" choyxonasigacha kelishi kerak bo'lgan [9].

Ammo, 1980-yillarda ham respublikaning ba'zi joylarida choyxonalar faoliyat yuritmaganligini ko'rish mumkin edi. Jumladan, Buxoro viloyati, Peshku tumani Sh.Ergashyev nomli jamoa xo'jaligi raisi Sh.Ochilov xo'jalikda yashovchi aholining ijtimoiy hayotida haqida so'z yuritib, bu hududda bironta choyxona mavjud emasligini, aholi bu borada juda qiynalishini ma'lum qilgan [10].

E'tiborlaringizni qo'yidagi lavhaga qaratishlaringizni so'rayman. "Saodat" jurnalining 1989 yilgi nashrlaridan birida Qashqadaryo viloyat Ulyanov tumanidagi Jizza qishlog'i aholisi tomonidan yuborilgan xatda 1600 nafar aholi istiqomat qilayotgan qishloqda bironta maktab muassasasi, choyxona, poyabzal do'koni yo'qligi, "Qishloq bosh rejasi" bo'lmaganligi sababli hammom qurish masalasi ancha yillardan buyon hal etilmayotganligi, aholining ijtimoiy hayoti uchun muhim bo'lgan soha vakillariga bo'lgan ehtiyoj xususida so'z yuritilgan [11].

Ko'plab oshxonalar restoranlarga, oshxonalar huzuridagi choyxonalar esa, o'z-o'ziga xizmat qilishdek bema'ni tartibga o'tdiki, bu narsa choyxonaning chinakam mohiyatini yo'qqa chiqaradi. Bu o'z-o'zidan choyxonalar ahamiyatining susayishiga olib keladi, uning fayzini, qadrini yo'qotadi. 1989 yilda "Guliston" jurnalida chop etilgan maqolalardan birida yozilishicha, "endilikda ahvol shungacha borib yetdiki, choyxonalarning juda ko'pchiligida mis samovarlar, chinni choynaklar, piyolalar o'rniga bak, tunuka choynak, stakanlar paydo bo'ldi. Toza gilamlar, ko'rpachalar, yaxshi yog'och chorpayalar o'rniga bir ahvolga tushgan kirchil paloslar, stol va stullar paydo bo'ldi. Choy navlarining pastligi tufayli damlangan choylarning bemazaligi,

xushta'm emasligi, bo'ynini xaridek qilib o'dag'aylovchi ba'zi choyxonachilar to'g'risida gapirmasak ham bo'ladi" [12].

XX-asrning 50-60-yillarida sovet mamlakatida to'y marosimlarini restoranlarda o'tkazish urfga kira boshladi. Restoran ma'muriyati bilan kelishgan holda spirtli ichimliklar olib kelish mumkin bo'ldi [13].

XX-asrning 60-yillariga kelib, mamlakatda komsomol tashkiloti tashabbusi bilan yoshlar kafesi faoliyati vujudga kela boshladi. Ushbu kafelarda artistlar, shoirlar va sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish ko'zda tutildi [14].

Sovet hukumati tomonidan, 1966-1970 yillarda oshxona, tamaddixona, kafe va restoranlarda xizmat ko'rsatish madaniyatni ham ko'tarish ko'zda tutildi [15].

Ko'p qavatli uylar birinchi qavatida restoran va kafelarni tashkil etishga, keyinchalik alohida bir qavatli kafelar barpo etishga e'tibor qaratildi. Oshxonalar asosan turli tashkilot va o'quv yurtlariga yaqin joylarda (ikki qavatli binolar) tashkil etila boshlandi. Biroq, mahalliy aholi ko'p tashrif buyuradigan choyxonalarni rivojlantirish bir muncha sust bo'ldi. XX-asrning 80-yillariga kelib, respublikadagi ko'pgina shahar markazlarida choyxonalar kam miqdorda bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda XIX-asr oxiri va XX-asr ikkinchi yarmida, xususan, sovet davrida O'zbekistonda umumiy ovqatlanish tizimi faoliyatida yangi yo'nalishlar vujudga keldi. Ya'ni, umumiy ovqatlanish muassasalarining an'anaviy shakllari – choyxona va kabobxonalardan tashqari, zamonaviy ko'rinishdagi restoran, fabrika-kuxnya, oshxona, maxsus kafelar (yoshlarniki, bolalarniki, muzqaymoqli, qandolatchilik, kafe avtomat), maxsus yemakxonalar (kabobli, kotletli, sosiskali, chuchvarali, somsali, osh, cheburekli, pirojkali, quymoqli, ponchikli, buterbrodli) va bar (pivoli, vinoli, kokteyl bari, kokteyl xolli, sutli) kabilar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularga aholining tashrifini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi.

An'anaviy turmush madaniyatining tarkibiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan, azaldan aholi ko'p tashrif buyuradigan choyxonalar rivojlanishiga, choyxonalar barpo etilishida esa, milliy me'morchilik va geografik joylashuv masalalariga yetarli e'tibor qaratilmadi.

Bu davrda, umumiy ovqatlanish muassasalarini barpo etishda mahalliy aholining demografiyasi, zichligi, ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar va korxonalarda ishlovchi kishilarning miqdori, qishloq aholisining nisbatan ko'pligi, milliy me'morchilik talablariga, aholining an'anasi va daromadi singari ijtimoiy omillarga yetarli e'tibor qaratilmadi. Sohaga yangi yo'nalishlar kirib kelgan bo'lsa-da, yillar mobaynida mahalliy aholining choyxonalarga tashrifi saqlanib qoldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Казакова Т.И. Зарубежный опыт работы организаций общественного питания.// Вестник НГИЭИ, 2014. –С.70-71.

2. Abdurahmonov A. Choyxona . «Guliston» jurnali, 1989 yil, 4-son (Elektron resurs: Abdulaziz Abdurahmonov. Choyxona (1989) - www.ziyouz.uz).

3. Гейер И.И. Весь Русский Туркестан. 1908. -Б.. XXIV. (Электрон ресупс: https://www.academia.edu/44610431/Гейер_И_И_Весь_Русский_Туркестан_Ташкент_1908).

4. O‘zMA, I-462-R-fond, 1-ro‘yxat, 333-yig‘ma jild, 16-varaq.
5. O‘zMA, I-462-R-fond, 1-ro‘yxat, 333-yig‘ma jild, 56-varaq.
6. Otajonov I.O. Hozirgi taraqqiyot davrida talabalar ovqatlanishini gigienik asoslash. Tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. – Toshkent, 2011. –B. 4.
7. O‘z MA, 837-fond, 38-ro‘yxat, 3846-ish, 140-varaq.
8. O‘z MA, 837-fond, 38-ro‘yxat, 3846-ish, 140-varaq.
9. Abdurahmonov A. Choyxona . «Guliston» jurnali, 1989 yil, 4-son (Elektron resurs: Abdulaziz Abdurahmonov. Choyxona (1989) - www.ziyouz.uz)
10. Неудавшийся эксперимент (С.Ахмедова)// Селская правда, 22 октября 1987. № 241.
11. Qashqadaryo oblast partiya komiteti va ijroiya komiteti rahbar xodimlariga! // Saodat, 1989. № 2. –B.19.
12. Abdurahmonov A. Choyxona . «Guliston» jurnali, 1989 yil, 4-son (Elektron resurs: Abdulaziz Abdurahmonov. Choyxona (1989) - www.ziyouz.uz)
13. Кафе, бары и рестораны Советского Союза (электрон ресурс: <https://diletant.media/articles/45319974/>).
14. Кафе, бары и рестораны Советского Союза (электрон ресурс: <https://diletant.media/articles/45319974/>).
15. Семенов В.С. Сфера обслуживания и её работники. –Москва: Издательство политической литературы. 1966. –С. 85.

“ROHATI DIL” ASARIDA JANR XILMA-XILLIGI

Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

sevinchaliyeva0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asaridagi janrlar xilma-xilligining tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, undagi janrlar sanab o‘tilib alohida asardagi nomlari bilan keltirilgan.

Kalit so‘zlar: diniy-ma’rifiy asarlar, “Rohati dil”, mumtoz adabiyot, islom dini, janr, hikoyat, bayon, rivoyat, qissa, g‘azal, munojot.

Adabiyot ham o‘z navbatida tarixiy taraqqiyot silsilasidan sayqallanib, doimiy ravishda rivojlanib kelgan. Buning natijasida shundan durdona asarlar yaratilganki, bugungi kunda ham o‘z qadr-qiymatini yo‘qotgan emas. Bunday asardan biri Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asari bo‘lib, diniy-ma’rifiy ruhda yozilgan. «Diniy dunyoqarash ta’sirida paydo bo‘lgan ilk adabiy yodgorliklar nafaqat diniy oqimlarning, balki badiiy tafakkurning ham ilk manbalari hisoblanadi. Ilk davrda diniy oqimlarning adabiyotga ta’siri to‘g‘risida gapirishdan ko‘ra, adabiyotning rivojiga asos bo‘lgani, adabiy janrlarni yuzaga keltirgani to‘g‘risida so‘z yuritish o‘rinlidir».[1] Yuqoridagi asarni ham tadqiq etish jarayonida undagi janrlar xilma-xilli bu jihatga